

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-6]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Djabbarova Feruza Odilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
e-mail:feruzadjabbarova82@gmail.com

PSIXOLOGIK OMILLAR VA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLARNING XORIJIY TILNI O'ZLASHTIRISHDAGI TA'SIRI

Annotatsiya: Mazkur maqola xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonida psixologik omillar -motivatsiya, til o'rganishga bo'lgan ishonch, tashvish darajasi, shaxsiy xususiyatlar va psixolingvistik yondashuvlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi. Xususan, psixolingvistika nazariyalarining tilni idrok qilish, saqlash va ishlab chiqishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonida individual farqlarning roli, ishchi xotira va avtomatlashtirilgan til ko'nikmalarining shakllanishi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Maqola xorijiy til o'qitish metodikasiga psixologik va lingvistik jihatlarni uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Psixologik omillar, psixolingvistika, xorijiy tilni o'rganish, motivatsiya, til tashvishi, ishchi xotira, tilni idrok qilish, xorijiy til, o'quvchi xususiyatlari.

Djabbarova Feruza Odilovna
Senior Lecturer, Chirchik State Pedagogical University

THE INFLUENCE OF PSYCHOLOGICAL FACTORS AND PSYCHOLINGUISTIC APPROACHES ON FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION

Abstract: This article analyzes the interrelation between psychological factors - such as motivation, self-confidence in language learning, anxiety level, and individual learner characteristics - and psycholinguistic approaches in the process of foreign language acquisition. In particular, it highlights the significance of psycholinguistic theories in language perception, retention, and production. The study examines, on a scientific basis, the role of individual differences, working memory, and the development of automatized language skills in the foreign language learning process. The article substantiates the necessity of integrating psychological and linguistic aspects into modern foreign language teaching methodology.

Keywords: Psychological factors, psycholinguistics, foreign language learning, motivation, language anxiety, working memory, language processing, foreign language, learner characteristics.

Джаббаровва Феруза Одилевна
Старший преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета

ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ НА ОСВОЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация: Настоящая статья посвящена анализу взаимосвязи между психологическими факторами - такими как мотивация, уверенность в изучении языка, уровень тревожности, индивидуальные особенности учащихся - и психолингвистическими подходами в процессе овладения иностранным языком. Особое внимание уделяется значению психолингвистических теорий в восприятии, запоминании и порождении речи. В исследовании научно обосновано влияние индивидуальных различий, рабочей памяти и формирования автоматизированных языковых навыков на процесс изучения иностранного языка. В статье обосновывается необходимость интеграции психологических и лингвистических аспектов в современную методику преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: Психологические факторы, психолингвистика, изучение иностранного языка, мотивация, языковая тревожность, рабочая память, языковая обработка, иностранный язык, особенности учащихся.

Kirish

Xorijiy tilni o'zlashtirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro

aloqalarning kengayishi va ko'p madaniyatli muhitda samarali muloqot zarurati til o'rganishni nafaqat professional kompetensiyaning bir qismi, balki shaxsiy rivojlanish mezoniga aylantirmoqda. Ayniqsa, xorijiy til

yoki begona tilni o'rganish jarayoni oddiy bilimlarni yod olishdan iborat bo'lmay, o'rganuvchining individual psixologik holati, kognitiv imkoniyatlari va ijtimoiy-emotsional tajribalari bilan uzviy bog'liqdir.

Tilni o'zlashtirishda nafaqat lingvistik bilimlar, balki insonning psixik jarayonlari - idrok, xotira, diqqat, tafakkur, hissiyot va motivatsiya ham muhim o'rin tutadi. Shu bois, til o'rgatish jarayonida psixologik omillarni hisobga olmasdan turib yuqori samaradorlikka erishish mushkul. Til o'rganuvchilar orasida uchraydigan motivatsiya yetishmasligi, til o'rganish xavotiri (language anxiety), o'z-o'zini past baholash kabi holatlar ko'pincha tilni egallashdagi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi (Horwitz, Horwitz & Cope, 1986).

Shu nuqtai nazardan qaranganda, psixolingvistika - til va tafakkur o'zaro munosabatini o'rganadigan ilmiy yo'nalish - til o'rgatish nazariyasi va amaliyotida alohida o'rin egallaydi. Psixolingvistik yondashuvlar orqali o'quvchining tildagi axborotni qabul qilishi, uni xotirada saqlashi va qayta ishlab chiqish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi (Baddeley & Hitch, 1974). Til o'rganishdagi asosiy kognitiv mexanizmlar, jumladan, ishchi xotira, ma'lumotlarni kodlash, avtomatlashtirish va chiqarish (output) jarayonlari psixolingvistika doirasida izohlanadi.

Mazkur maqola aynan shunday murakkab va ko'p omilli til o'rganish jarayonini psixologik va psixolingvistik yondashuvlar orqali yoritishni maqsad qiladi. Unda til o'rganishda o'quvchi shaxsining emotsional-irodaviy holati, psixologik barqarorligi, motivatsiyasi bilan bir qatorda, tilni idrok qilish va ishlab chiqishga oid kognitiv jarayonlar tahlil qilinadi. Shu orqali xorijiy tilni o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalarini psixologik asoslash va ularni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish yo'llari aniqlanadi. Mavzuning ilmiy va amaliy dolzarbligi shundaki, har bir til o'rganuvchi shaxsdir. Demak, tilni egallash strategiyasi ham shaxsga mos, individual yondashuvga asoslangan bo'lishi zarur. Bu esa psixologik omillar va psixolingvistik tamoyillarni integratsiyalashgan holda qo'llashni taqozo etadi.

Asosiy qism

Xorijiy tilni o'zlashtirish jarayoni inson psixikasi va tafakkurining murakkab mexanizmlarini harakatga keltiruvchi ko'p qirrali va ko'p omilli tizimdir. Bu jarayonga turli xil psixologik omillar hamda psixolingvistik yondashuvlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Asosiy qismda ushbu omillar ilmiy manbalar asosida chuqur tahlil qilinadi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatib o'tiladi.

1. Psixologik omillar: motivatsiya, til tashvishi va o'z-o'zini baholash

Motivatsiya

Motivatsiya til o'rganishda eng kuchli harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Zoltán Dörnyei (2005) motivatsiyani o'quvchining ichki psixologik holatiga bog'liq bo'lgan, til o'rganishga ijobiy munosabat

va faol ishtirokni ta'minlovchi omil sifatida tavsiflaydi. Gardner (1985) tomonidan ishlab chiqilgan *Integrative vs Instrumental Motivation* modeli esa til o'rganishga bo'lgan ichki (til madaniyatiga qiziqish) va tashqi (ish, ta'lim yoki migratsion ehtiyoj) sabablarni ajratib ko'rsatadi.

O'zbekistonda o'tkazilgan ba'zi tadqiqotlar (Turg'unova, 2021) shuni ko'rsatadiki, til o'rganishdagi past motivatsiya ko'pincha qat'iy maqsadlarning yo'qligi, dars metodikasining zerikarli bo'lishi yoki o'quv muhitining yetarli darajada interaktiv emasligi bilan bog'liq.

Xavotir

Til o'rganishdagi xavotir holati (language anxiety) o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Horwitz va hamkorlar (1986) tomonidan ishlab chiqilgan FLCAS (Foreign Language Classroom Anxiety Scale) asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori tashvish darajasi nutqning erkin chiqishiga, grammatika xatolari qo'rquvi va noto'g'ri baholanish hissiyotiga olib keladi. Bu holat, ayniqsa, og'zaki muloqot vaziyatlarida kuchayadi.

Xavotir o'z-o'zini ifoda qilish imkoniyatini cheklaydi va o'rganish samaradorligini kamaytiradi. Shunday qilib, o'qituvchi til o'rgatishda psixologik xavfsizlik muhiti yaratishi, xatolardan qo'rqqanlikka undovchi metodlarni qo'llashi zarur.

O'z-o'zini baholash (self-efficacy)

Bandura (1997) tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'ziga ishonch nazariyasiga ko'ra, o'quvchining o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ularning faolligi va qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatini belgilaydi. Til o'rganishda o'z-o'zini past baholovchi o'quvchi ko'p hollarda ishtirokdan qochadi, bu esa rivojlanishning sekinlashishiga olib keladi. Aksincha, o'zini ijobiy baholovchi o'quvchi ko'proq risk qiladi va ko'proq mashq bajaradi, natijada til ko'nikmalari tezroq rivojlanadi.

2. Psixolingvistik tamoyillar: kognitiv jarayonlar va til o'zlashtirish

Ishchi xotira va tilni qayta ishlash

Alan Baddeley va Graham Hitch (1974) tomonidan ishlab chiqilgan ishchi xotira modeli xorijiy til o'rganish jarayonida qisqa muddatli eslab qolish va tezkor tahlil qilish mexanizmini tushuntiradi. O'quvchi yangi til birliklarini eslab qolish, ularni kontekstda qo'llash, grammatik shakllarni ajratish uchun kuchli ishchi xotiraga ega bo'lishi lozim. Masalan, og'zaki muloqot paytida o'quvchi bir vaqtning o'zida so'z ma'nosini tushunib, grammatik mosligini tahlil qilishi va kontekstga mos ravishda javob qaytarishi kerak. Bu esa ishchi xotira jarayonlarining yuqori darajada bo'lishini talab qiladi.

Avtomatlashtirish va procedural bilim

Til o'rganishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilar qoidalarini ongli ravishda qo'llaydilar (deklarativ bilim), ammo vaqt o'tishi bilan bu bilimlar avtomatlashtirilgan procedural ko'nikmaga aylanadi.

Anderson (1983) tomonidan taklif etilgan ACT-R modeli bu jarayonni tushuntirib beradi. Masalan, soʻz yodlashda oʻquvchi avval uni tarjima qiladi, keyinchalik esa uni bevosita kontekstda ishlatishni oʻrganadi.

Input va output jarayonlari

Stephen Krashen (1982) tilni oʻrganishda “comprehensible input” tamoyilini ilgari suradi. Unga koʻra, oʻquvchi oʻz til darajasidan biroz yuqori darajadagi axborotni tushungan holda qabul qilsa ($i+1$), u oʻsadi. Shuningdek, “affective filter” nazariyasiga koʻra, oʻquvchining emotsional holati (stress, xavotir) inputning qayta ishlanishiga toʻsqinlik qilishi mumkin.

3. Oʻquv jarayoniga integratsiya qilish yoʻllari

Zamonaviy taʼlimda psixologik va psixolingvistik tamoyillarni integratsiyalash shunchaki nazariy gʻoya boʻlib qolmay, balki real oʻquv metodikasi shaklida joriy etilishi zarur. Quydagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Individual oʻquv uslublarini aniqlash va ularga mos materiallar tayyorlash;
- Motivatsiyani oshirish uchun maqsadga yoʻnaltirilgan topshiriqlar (project-based learning) qoʻllash;
- Ishchi xotirani rivojlantiruvchi mashqlar: qisqa eslab qolish, dikta, soʻz yodlash oʻyinlari;
- Tashvishni kamaytirish uchun ijobiy va xavfsiz oʻquv muhitini yaratish (feedback metodikasi);
- Til inputʻini real kontekstli muloqotlar orqali boyitish (video, interaktiv suhbatlar, simulyatsiyalar).

Xulosa

Xorijiy tilni oʻzlashtirish inson ongining kognitiv, emotsional va psixomotor jihatlarini oʻzaro uygʻunlashtirgan murakkab jarayon boʻlib, uni faqat lingvistik kompetensiyalar doirasida izohlash yetarli emas. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, psixologik omillar - jumladan, motivatsiya, xavotir va oʻz-oʻzini baholash - oʻquvchining til oʻrganishdagi muvaffaqiyatini

belgilovchi muhim determinantal omillar sifatida namoyon boʻladi. Bu holat oʻquvchilarning oʻzlarini qanday baholashi, oʻrganishga qanday emotsional munosabatda boʻlishi va ichki psixologik tayyorgarligi orqali tilni qanday darajada oʻzlashtirishi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Shu bilan birga, psixolingvistik tamoyillar - xususan, ishchi xotira, tilni avtomatik qayta ishlash va tushunarli input nazariyalari - xorijiy tilni oʻrganish jarayonini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Psixolingvistika oʻrgatuvchi va oʻrganuvchi oʻrtasidagi muloqotni nevropsixologik darajada yoritib, tilni idrok qilish, eslab qolish va ishlab chiqarish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini yaratadi. Ishchi xotiraning hajmi va samaradorligi oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqida til birliklarini qanday qoʻllashi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu holat oʻz navbatida oʻqitish metodikasiga ham bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Maqolada koʻrsatib oʻtilganidek, psixologik va psixolingvistik omillarni xorijiy til oʻqitish amaliyotiga integratsiyalash, oʻquvchilarning individual ehtiyojlari va farqlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Oʻquv muhitini psixologik jihatdan qulay, xavfsiz va ijobiy tarzda tashkil etish, shuningdek, dars metodikasida motivatsion, interaktiv va reflektiv yondashuvlarni tatbiq etish orqali oʻrganish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Shunday qilib, xorijiy tilni oʻzlashtirishda yuqori natijalarga erishish uchun psixologik omillar va psixolingvistik yondashuvlarning oʻzaro uygʻun holda qoʻllanilishi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu yoʻnalishda olib boriladigan tadqiqotlar taʼlim strategiyalarini yanada takomillashtirish, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim modellarini ishlab chiqish va xorijiy til oʻrganishning sifatini tizimli ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- 1.Anderson, J. R. (1983). *The architecture of cognition*. Harvard University Press.
- 2.Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. W.H. Freeman.
- 3.Baddeley, A. D., & Hitch, G. J. (1974). Working memory. In G. H. Bower (Ed.), *The psychology of learning and motivation* (Vol. 8, pp. 47–89). Academic Press.
- 4.Dörnyei, Z. (2005). *The psychology of the language learner: Individual differences in second language acquisition*. Lawrence Erlbaum.
- 5.Gardner, R. C. (1985). *Social psychology and second language learning: The role of attitudes and motivation*. Edward Arnold.
- 6.Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. *The Modern Language Journal*, 70(2), 125–132. <https://doi.org/10.2307/327317>
- 7.Karimova, R. (2020). *Til oʻrgatishda psixologik yondashuvlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
- 8.Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon.
- 9.Turgʻunova, N. (2021). Xorijiy til oʻrganishda emotsional intellektning oʻrni. *Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*, 2(45), 89–94.

D.Bekimbetova.....	425
Baxt kategoriyasining genezisiga doir konsepsiyalar.	
O.Abdusalomov.....	429
Bilim, kuch va manfaatlar ziddiyati: korrupsiyaning gnoseologik tahlili.	
H.Temirov.....	435
Diniy qadriyatlar tizimining shakllanish manbalari va axloqiy vazifalari.	
U.Kurbonaliyev.....	439
Raqamli jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.	
Sh.Jo'rayeva.....	442
Diniy manbalarda ayol husni-xulqi haqidagi g'oyalarning falsafiy tahlili.	
O.Ne'matova.....	449
"Temur tuzuklari" o'rta asr markazlashgan davlatchilik modelining yuzaga kelishi.	
M.Boboyev, T.Alimardonov.....	456
Jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish masalalarini tadqiq etishning nazariy jihatlar.	
F.Qosimov.....	461
Tasavvufning majoziy tili.	
J.Xolmo'minov.....	465

FILOLOGIYA FANLARI
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

Hikoyalarda milliy qadriyatlar.	
Sh.Aldasheva.....	470
O'zbek antroponimikasining kelib chiqish tarixi.	
B.Saidov.....	473
Badiiy ijod fenomenologiyasida ijodkor va o'quvchi ongi hamkorligi masalasi.	
M.Tilovova.....	477
Terminlarning semantik tahlili va tarjima usullari.	
F.Abdullayeva.....	481
Tarjima universallari tushunchasi va ularning ilmiy asoslari.	
A.Axmedova, Sh. Qarshiyeva.....	485
Bilingval tezaurus yaratishda semantik valentlik tushunchasining tahlili (wordnet, british national corpus va o'zbek tili korpusi misolida).	
L.Babajanova.....	489
Значение дружбы в культуре узбекского народа: социальные аспекты и моральные ценности.	
Д.Атамуродова.....	494
Psixologik omillar va psixolingvistik yondashuvlarning xorijiy tilni o'zlashtirishdagi ta'siri.	
F.Djabbarova.....	498
Evfemistik tarjimada kontekstning o'rni (gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati misolida).	
M.Eshchanova.....	501
Frans Kafkaning "qishloq shifokori" hikoyasida tush motivlarining ishtiroki.	
B.Ergasheva.....	506
Nutq nuqsoniga ega bolalar tafakkur xususiyatlarini o'rganish va ularni bartaraf etishda logopedik ish metodlari.	
G.G'anieva, U.Utbosarova.....	510
Study of compliment through pragmatic theory: perspectives of modern linguistics.	
I.Jabbarov.....	514
Bilingual nutqda va mediya matnlarda estetik buzilish orqali madaniy identity ifodasi.	
G.Komilova.....	518
Bolalar folkloridagi sahnaviy elementlar.	
O.Mahamadjonova.....	522
Gastronomik turizm terminlarini ingliz va o'zbek tillarida tarjima qilish muammolari.	
M.Yuldashev.....	526
Yapon tilida ikkilangan inkor tahlili.	
N.Tursunova.....	530
O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasining g2p model uchun ahamiyati.	
G.Maxmudjonova.....	534
Istiqlol davri o'zbek romanchiligida poetika va badiiy tafakkur masalalari (Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatlar girdobi" romani misolida).	